



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

INGLIZ HAMDA O‘ZBEK AYOL SIYOSIY LIDERLARINING NUTQIDA MORFOLOGIK O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Adolat Asrorovna Kenjayeva (Asrorova)

O‘zbekiston Milliy universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqola tilning leksik tizimi va uning jamiyatdagi ijtimoiy voqelik hamda kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liqligini tahlil qiladi. Siyosiy faoliyat kontekstida so‘z siyosatchining asosiy ta’sir vositasi sifatida ko‘rib, elektorat ongini shakllantirish va ishonch qozonishda markaziy rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Tadqiqotda siyosiy diskursda genderga xos xususiyatlarning leksik tizimga ta’siri alohida ko‘rsatilib, erkak va ayol siyosatchilar tomonidan tanlanadigan leksik birliklarning emotsional, pragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlarni belgilashi tahlil qilinadi. Bu jarayon psixolingvistik motivatsiya va ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liq ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, leksik tanlovni to‘liq anglash uchun siyosiy nutqning morfologik tuzilmasiga aniqlik kiritish zarurligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari siyosiy lingvistika, gender tadqiqotlari va kognitiv yondashuvlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Leksik tizim, siyosiy diskurs, gender xususiyatlari, kommunikativ ehtiyoj, emotsional yuklama, pragmatik omillar, sotsiomadaniy kontekst, psixolingvistika, morfologik tuzilma, siyosiy lingvistika.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В РЕЧИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН-ПОЛИТИЧЕСКИХ ЛИДЕРОВ

Адалат Асроровна Кенжаева (Асророва)

Национальный университет Узбекистана, независимый исследователь

Аннотация

В статье анализируется лексическая система языка и её взаимосвязь с социальной реальностью и коммуникативными потребностями общества. В контексте политической деятельности слово рассматривается как основной инструмент воздействия политика, играющий ключевую роль в формировании общественного мнения и завоевании доверия электората. Особое внимание уделяется влиянию гендерных особенностей на лексическую систему политического дискурса, а также анализу эмоциональных, прагматических и социокультурных характеристик лексических единиц, используемых мужчинами и женщинами-политиками. Показано, что данный процесс связан с психолингвистической мотивацией и социальными стереотипами. Кроме того, обосновывается необходимость уточнения морфологической структуры политической речи для более глубокого понимания лексического выбора. Результаты исследования имеют теоретическую и практическую значимость для политической лингвистики, гендерных исследований и когнитивных подходов.

Ключевые слова: лексическая система, политический дискурс, гендерные особенности, коммуникативные потребности, эмоциональная нагрузка, прагматические факторы, социокультурный контекст, психолингвистика, морфологическая структура, политическая лингвистика.

MORPHOLOGICAL FEATURES IN THE SPEECH OF ENGLISH AND UZBEK FEMALE POLITICAL LEADERS

Adolat Asrorovna Kenjayeva (Asrorova)

National University of Uzbekistan, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the lexical system of language and its close relationship with social reality and communicative needs. In the context of political activity, language is viewed as a key instrument of influence, playing a central role in shaping public opinion and gaining the trust of the electorate. The study highlights the impact of gender-specific features on the lexical system of political discourse and examines the emotional, pragmatic, and sociocultural characteristics of lexical choices made by male and female politicians. It demonstrates that these processes are linked to psycholinguistic motivation and social stereotypes. Furthermore, the necessity of clarifying the morphological structure of political speech for a deeper understanding of lexical choices is substantiated. The findings are of theoretical and practical significance for political linguistics, gender studies, and cognitive approaches.

Keywords: lexical system, political discourse, gender features, communicative needs, emotional load, pragmatic factors, sociocultural context, psycholinguistics, morphological structure, political linguistics.

Tilning leksik tizimi jamiyatdagi ijtimoiy voqelik va kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning har bir birligi ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ yuklamani ifodalaydi. Siyosiy faoliyat kontekstida so‘z siyosatchining ta‘sir o‘tkazish vositasi sifatida markaziy o‘rin tutadi, chunki aynan so‘z orqali siyosatchi saylovchilar ongini shakllantiradi va elektorat ishonchini qozonadi. Ayniqsa, siyosiy diskursda genderga xos xususiyatlarning leksik tizimga ta‘siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Erkak va ayol siyosatchilar tomonidan tanlanadigan leksik birliklar nutqning emotsional, pragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlarini belgilashi leksik tanlov ortida psixolingvistik motivatsiya va ijtimoiy stereotiplarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu kabi leksemalarni tanlash xususiyatlarini aniqlashdan avval siyosiy nutqning morfologik tuzilmasiga aniqlik kiritish zarur. Demak, asosiy so‘z turkumlarining (ot, fe‘l, sifat, ravish, olmosh va h.k.) qo‘llanish holati hamda ularning genderga xos semantik mazmunini ko‘rib chiqamiz. Masalan, Hillary Clintonning nutqida qo‘llanilgan ot, sifat, fe‘l va ravish so‘z turkumlariga oid birliklar o‘rganilganda, quyidagi natijalar aniqlandi:

1. Nutq ayollar huquqlari va inson huquqlari haqidagi global muloqotga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ayol va oila, huquq va erkinlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohaga taalluqli birliklar qo‘llanilgan: women, woman, girls, mothers, daughters, families, children, human family; rights, human rights, freedom, equality, justice, dignity, democracy; education, health, work, violence, poverty, opportunity; world, countries, nations, community, society, government. Matnda, asosan, rights, freedom, equality, justice, dignity, democracy, opportunity, violence, poverty kabi mavhum otlar hamda women, children, families, countries kabi ko‘plik shaklidagi turdosh otlar keltirilgan.
2. TIME saytida keltirilgan to‘liq transkriptga tayangan holda, nutqning mazmuni mag‘lubiyatni tan olish, tarafdorlarga tasalli berish, demokratiya qadriyatlarini ta‘kidlash, Trampga “open mind and a chance to lead” chaqirig‘i orqali mamlakat va davlat, qadriyat va prinsiplar, ijtimoiy guruhlar va shaxslar, siyosiy jarayon xususida to‘xtalishga qaratilgan. Matnda country, nation, America, democracy, election, campaign, government, president, Constitution, power; values, dreams, hope, faith, dignity, rights, law, rule of law, equality, freedom, future; Americans, people, families, children, girls, men, women, immigrants, volunteers, leaders, citizens, supporters; votes, result, outcome, barrier, glass ceiling, work, battles kabi mavhum va jamlovchi otlar qo‘llangan.
3. Rev transkriptiga ko‘ra, nutqda Tramp boshqaruvi tanqidi, Biden–Harris jamoasini maqtash, saylovchilarga “vote, vote, vote” chaqiriqlari ifodasini topgan. Ushbu diskursda siyosiy aktyorlar va institutlar, shaxs va guruhlar, muammo va siyosiy mavzular, qadriyatlar va maqsadlarni ifodalovchi atoqli otlar, turdosh va jamlovchi otlar qo‘llanilgan. Jumladan: president, America, Americans, nation, White House, leaders, team, party, election, campaign; Joe Biden, Kamala Harris, Donald Trump (shaxs nomlari ot vazifasida); workers, families, children, parents, teachers, healthcare workers, first responders, small businesses; pandemic, crisis, healthcare, jobs,

economy, climate change, justice, equity, relief, unemployment, ballots, vote, poll; future, truth, hope, unity, leadership, sacrifice, service, village, plan, dream kabilar shular jumlasidandir.

4. TIME saytida 2024-yil 20-avgust kungi DNC nutqi transkriptiga ko‘ra, Kamala Harrisni “for the people” shiori tufayli maqtash, “glass ceiling” metaforasi, erkinlik va qonun ustuvorligi kabi mavzularni yoritib berish jarayonida erkinlik va huquqlar, siyosiy jarayon va lavozimlar, bosh qahramonlar, timsollar mavzusiga oid otlar qo‘llangan. Jumladan: freedom, laws, rule of law, rights, decisions, health, lives, families, dignity, justice, fear, violence, injustice, chaos, corruption; President, office, oath, campaign, election, polls, truth, country, America, nation; Kamala Harris, Donald Trump, founders, children, grandchildren, friends, neighbors; glass ceiling, barrier, future, promise, time, step, way kabi leksik birliklar ishlatilgan.

Hillary Clintonning ayollar va inson huquqlariga bag‘ishlangan nutqida ot so‘z turkumiga oid leksemalardan tashqari:

- sifatlar: equal, human, global, strong, important, universal, basic;
- fe‘llar: support, protect, ensure, eliminate, empower, include, guarantee;
- ravishlar: equally, strongly, globally, together, everywhere kabilar qo‘llanilgan.

Shuningdek, TIME saytidagi transkriptida mag‘lubiyatni tan olish va tarafdorlarga tasalli berish bilan birga demokratik qadriyatlarni ta‘kidlovchi nutqda birdamlik, umid, siyosiy madaniyat semantikasiga oid sifat, fe‘l va ravishlar qo‘llanadi:

- sifatlar: proud, hopeful, peaceful, democratic, united, respectful, better;
- fe‘llar: believe, continue, thank, respect, accept, support, cherish, vote;
- ravishlar: together, sincerely, truly, peacefully, still, forward.

Hillary Clintonning ko‘rib chiqilgan diskursidan tanlab olingan so‘z turkumlari, jumladan, sifat, fe‘l va ravishlar quyidagi rasm orqali umumlashtirilgan holda ifodalangan:

1-jadval

Nutq turi	Dominant fe‘llar	Dominant sifatlar	Dominant ravishlar	Diskurs strategiyasi
1995 – Pekin	protect, empower	equal, human	equally	Global gender-huquqiy diskursi
2016 – Concession	respect, support	hopeful, peaceful	sincerely	Siyosiy madaniyat va tasalli
2020 – DNC	unite, vote	strong, united	now, firmly	Mobilizatsion birdamlik
2024 – DNC	defend, believe	free, lawful	together, boldly	Konstitutsion qadriyatlarni himoya qilish

Keyingi siyosatchi ayol Tanzila Norboyevaning nutqi matni tahlilga tortilganda quyidagilar oydinlashdi:

1. xotin-qizlar, ayollar, uy-joy, hujjat, topshiriqlar, tuzilma, bo‘g‘in, reja, ish, yordam, ayollar daftari kabi otlar;
2. olib bormoq, qoralamoq, ta‘minlamoq, bajarmoq, kiritmoq, ko‘maklashmoq, nazarda tutmoq, tashkil etmoq, yurmoq, baholamoq kabi fe‘llar;
3. qoniqarli, salbiy, ortiq, mas‘ul, jazirama kabi sifatlar;
4. bevosita, sal, umuman kabi ravishlar qo‘llanilgan.

Tanzila Norboyevaning murojaat nutqida esa quyidagi so‘z turkumlari ishlatilgan:

1. Otlar: mamlakatimiz, xalqimiz, vatandoshlar, hamyurtlarimiz, insoniyat, shifokorlar, mutaxassislar, idoralar, Covid-19, koronavirus, karantin, birdamlik, mas‘uliyat, mashaqqatlar, sinovli kunlar, farmon, qaror, ishlar, mehnat, xushxabar;
2. Fe‘llar: tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, imzolamoq, amalga oshirmoq, e‘tirof etmoq, murojaat qilmoq, rioya qilmoq, yengmoq, asrab qolmoq;
3. Sifatlar: muhim, beqiyos, mard, oliyjanob, og‘ir-vazmin, mas‘uliyatli;
4. Ravishlar: albatta, azaldan, bugun, tezroq, qat‘iy, nafaqat, balki.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva bilan suhbat matni tahlilga tortilganda, unda quyidagi birliklarning qo‘llanganligi aniqlandi:

1. otlar: parlament, ittifoq, islohot, tajriba, yutuq, tashkilot, davlat, jamiyat, konstitutsiya, tamoyil, huquq, erkinlik, fuqarolar, murojaatnoma, modda, saylov, tashabbus, hamkorlik, tashrif;
2. sifatlar: demokratik, barqaror, muhim, alohida, ramziy, yangi, chinakam, ochiq, tashabbuskor, xalqchil, suveren, qonuniy, kuchli, tayin;
3. fe‘llar: qayta tiklandi, to‘pladi, e’tirof etildi, belgilab olindi, amalga oshirilmoqda, tatbiq etilmoqda, ko‘zlanmoqda, aylandi, ifoda etildi, tashrif buyurdi, mustahkamlandi, yozildi, qabul qilindi, uchrashdi;
4. ravishlar: chuqur (bilgan), ishonch bilan (ilgarilamoqda), doimo, bejiz, ochiq-oydin, xolis (baholash), tinch (yashash).

Hillary Clintonning 1995-yilda BMTning Pekinda o‘tgan Ayollar bo‘yicha 4-Butunjahon konferensiyasida so‘zlagan nutqi matni to‘liq bo‘lganligi sababli, shu bo‘yicha so‘z turkumlarining qo‘llanilish soni aniqlandi. Jumladan, unda 50 tadan ortiq mavhum ot va 40 dan ortiq turdosh ot, 130 ta aniq nisbatdagi fe‘l, 45 ta majhul nisbatdagi fe‘l, 60 ta sifat va 40 tadan ortiq ravish qo‘llangan. Tanzila Norboyeva nutqining to‘liq matni sifatida faqat Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi borasidagi suhbatidan olingan nutq tahlil qilinishi, unda 220 ta mavhum va 190 ta turdosh ot, 215 ta sifat, aniq nisbatdagi 146 ta va majhul nisbatdagi 92 ta fe‘l, 124 ta ravish qo‘llanganligi aniqlandi. Bu so‘z turkumlari deyarli bir xil nisbatda ifodalanganligini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan siyosiy nutqlarda o‘zbek tilidagi matn hajm jihatdan ingliz tilidagiga nisbatan kattaroq bo‘lganligi sababli, so‘z turkumlari miqdorida sezilarli farqlar kuzatiladi. Bu hol tabiiy, chunki ot biror hodisa yoki narsani aniqlashtirish uchun eng muhim vosita hisoblanadi. V. G. Gakning ta’kidlashicha, “otlar har qanday tilning lug‘at tarkibida eng katta foizni tashkil etadi” [1]. Demak, so‘z turkumlarining umumiy taqsimoti gender jihatdan farqlovchi omil bo‘la olmaydi, balki so‘z turkumlarining ichki toifalari tahlilini taqozo etadi. Ayniqsa, otlarning mavhumlik va aniqlik prinsipi asosidagi taqsimlanishi muhim jihatlardan biridir.

Xulosa

An’anaviy qarashlarga ko‘ra, ayol notiqlarning nutqi ko‘proq emotsional vositalarga tayanishi kutiladi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar Clinton va Norboyeva nutqlarida sifat va ravishlarning qo‘llanishida gender asosida sezilarli tafovutlar yo‘qligini ko‘rsatdi. Aksincha, har ikkisi ham siyosiy muloqot talablariga mos, mazmunan boy, puxta tuzilgan va strategik yondashuv asosida shakllangan nutqlarni taqdim etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. — М.: Просвещение, 1977. — 299 с.
2. Горошко Е. В. Политическая лингвистика: текст и дискурс. — М.: URSS, 2003. — 256 с.
3. Кирилина А. В., Томская М. В. Лингвистические гендерные исследования // Отечественные записки. — 2005. — № 2. — С. 96–112.
4. Ощепкова Г. А. Политический дискурс: теория и практика. — М.: Наука, 2003. — 312 с.
5. Степанова Е. В. Политический дискурс и коммуникация. — М.: ЛКИ, 2009. — 288 с.
6. Шевчук Ю. В. Гендерные особенности в англоязычном политическом дискурсе // Молодой ученый. — 2020. — № 22 (312). — С. 641–643.
7. Шейгал Е. И. Семиотика политического дискурса. — М.: Гнозис, 2004. — 324 с.
8. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
9. Lakoff R. T. Language and Woman’s Place. — New York: Harper & Row, 1975. — 83 p.